


111. Masalalar yechish

Natijalaringizni baholang.

Nimani bilishingizni va yana nimani o'rganishingiz kerakligini o'ylab ko'ring.



1. a) 25 va 43 sonlari yig'indisini toping.
b) 80 va 60 sonlari ayirmasini toping.
d) Kamayuvchi 87, ayriluvchi 21.
Ayirmani toping.
e) 67 ni 31 taga orttiring.
f) 92 ni 41 taga kamaytiring.
g) Men bir son o'yladim, unga 33 sonini qo'shdim va
76 sonini hosil qildim.
Men qanday sonni o'yladim?
h) 85 dan noma'lum son ayirildi, 64 hosil bo'ldi.
Qaysi son ayirildi?



2. Asalarichining dalada 12 ta, polizda esa 8 ta ariqutisi turibdi. Yana bog'da ham bor. Hammasi bo'lib uning 27 ta ariqutisi bor. Bog'da nechta ariquti bor?



12



8



?

27



3. Masala tuzing. Uning yechimini va javobini yozing.



20 l



? , 3 l
kam



4. Bochkada asal bor edi. Vinni-Pux asalning 5 litrini yedi. Boyqushga undan 3l kam asal qoldi. Bochkada qancha asal bo'lgan?



5. Vinni-Puxning shkafida 15 ta tog' asali, 12 ta gul asali solingan va 2 ta bo'sh kuvacha turibdi. Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?

$$15 + 12 \quad 15 + 12 + 2 \quad (15 + 12) - 2$$



6. Kamron tug'ilgan kunida hammani shirinliklar bilan mehmon qildi. Lola hammadan kam yedi, Botir Madinadan ko'p, Kamron esa Botirdan kam, biroq Madinadan ko'p yedi. Davron Botirdan ko'p yedi. Ularni yegan shirinliklari mijori bo'yicha qo'yib chiqing.